НОВАЯ ЭРА НАУКИ И ЗНАНИЙ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ
global-science-review.com
editor@global-science-review.com

ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR RIVOJLANTIRISHDA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTINING OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIGI

Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti
Professor M.U.Xamidova
4- bosqich talabasi
Ergasheva Shoira To’lkinovna

Резюме. Maqolada maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni oilada tarbiyalash va rivojlantirish yo‘llari va ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotining eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ota-onalar hamkorligining samarali yo‘llari, ota-onalarga korreksiya ishlarini erta boshlashning ahamiyati yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: Nogiron, korreksiya, jismoniy va aqliy, emotsional, imo-ishora, daktil nutqi, maktabgacha yoshdagi davr, hissiy rivojlanish, idrok etish, erta protezlash.

ПАРТНЕРСТВО ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ СЛУХА И РОДИТЕЛЕЙ МНОГОПРОФИЛЬНОЙ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННОЙ ОРГАНИЗАТSIИ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Резюме. В статье освещены методы семейного воспитания и развития детей с нарушениями слуха дошкольного возраста и эффективные пути сотрудничества родителей детей с нарушениями слуха многопрофильной специализированной дошкольной организатsiи образования, значение ранней коррекционной работы для родителей.

Ключевые слова: инвалидность, коррекция, телесно-психическая, эмоциональная, жестовая, дактильная речь, дошкольный период, эмоциональное развитие, восприятие, раннее протезирование.

НОВАЯ ЭРА НАУКИ И ЗНАНИЙ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ
global-science-review.com
editor@global-science-review.com

PARTNERSHIP OF HEARING – IMPAIRED CHILDREN AND PARENTS OF A MULTIDISCIPLINARY SPECIALIZED ORGANIZATION OF PRESCHOOL EDUCATION

Abstract: The article highlights the methods of family education and development of children with hearing impairments of preschool age and effective ways of cooperation between parents of children with hearing impairments of a multidisciplinary specialized preschool educational organization, the importance of early correctional work for parents.

Key words: disability, correction, bodily-psychic, emotional, gestural, tactile speech, preschool period, emotional development, perception, early prosthetics.

Kirish: Har bir ota-ona o‘z farzandlariga bilim, ta’lim-tarbiya va xunarni meros etib qoldirishi kerak, chunki tarbiyadan ko‘ra yaxshiroq meros yo‘qdir.

Odatda, go‘daklar va ikki - uch yoshgacha bo‘lgan bolalar oilada tarbiyalanadi va ota - onalar farzandi rivojlanishi uchun juda ko‘p narsa qilishlari mumkin. Bola hayotining birinchi oylaridayoq tovushlarga reaksiyasiga diqqat bilan munosabatda bo‘lish, nutqiy reaksiyalarga, g‘o‘ldirash, pichirlash xarakteriga e’tiborni jalb qilishni ko‘zda tutadi. Go‘dakning eshitishi pasayganiga shubha uyg‘onsa, vrach — audiologga murojat etish zarur.

Barchaga ma’lumki keyingi yillarda ayollar nogironlik va oilada nogiron bolalar tug‘ilishi ko‘paymoqda. Bunday holatlar ota-onalarni, mutaxassislarni, jamoatchilikni maxsus pedagogik muammolar tashvishga solmoqda.

Bolalik inson hayotidagi go‘zal va baxtli davrdir, uni turlicha so‘zlar bilan ta’riflash mumkin: baxtli, beg‘am, beg‘ubor va h.k., lekin ba’zi bolalar uchun u og‘ir. Avvalo ular aybdor bo‘lmagan sabablarga ko‘ra jismoniy va aqliy kamchiliklar, nuqsonlar rivojlanmaslik natijasidir. Bu vaziyat ota-onalarning ruhiy holatiga juda kuchli ta’sir qiladi. Ba’zi hollarda oilaviy baxtsizlikka, tushkunlikka tushib qolish holatiga sabab bo‘ladi.

Tarbiya nazariyasi - tarbiyaning mazmuni, uning bolalar yoshiga bog‘liqligi, tarbiya tamoyillari hamda ulardan samarali foydalanish shart - sharoitlari, o‘quvchilarning maktabdan tashqari ishlari, maktab, oila, mehnat jamoalari, jamoatchilikning bola tarbiyasidagi birgalikdagi ishlari mazmunini ochib beradi. Tarbiya nazariyasi va metodlari maktablardagi tarbiyaviy faoliyatning ilmiy asosini tashkil etadi.

Yetuk shaxs tarbiyalash tarbiyaning yagona maqsadidir. Shaxs tarbiyasiga atroflicha yondoshish obyektiv ravishda aqliy, g‘oyaviy, axloqiy, mexnat, nafosat va jismoniy tarbiya birligini, tarbiya jarayonida tashkil etishning yakka, guruxli va ommaviy shakllarini qo‘shib olib borishni ta’minlaydigan pedagogik tizimlarni vujudga keltirishni ham bu tizimlarga amal qilishni talab etadi. Tarbiya jarayoni shaxsning ijtimoiy qadrli fazilatlarini shakllantirishga, uning atrofga, odamlarga, o‘ziga nisbatan munosabatlari doirasini vujudga keltirishga va kengaytirishga qaratilgan.

Korreksion – tarbiyaviy jarayonga ota – onalarni maksimal darajada jalb etish va ularga professional yordam berish zarurligi kundan – kunga muxim masala bo’lib bormoqdalar.

Rivojlanishdan orqada qolgan bolalarni tarbiyalovchi ota-onani qo’llab – quvvatlashni, oila atrofdagi olam ichida hamda u bilan o’zaro munosabat usullari endi shakllanayotgan davrda amalga oshirish lozimligini to’g‘ri anglashni bir qator masalalarni xal etishni ko’zda tutadi. Ulardan muximlari quyidagilardir. Bolani rivojlanishidan nuqsonini oila ichidagi o’zaro munosabatiga ta’siri; ota-onalarni o’z farzandlari bilan muloqatida kompetetligi, tarbya metodlarida xabardor bo‘lishi va ularni to‘g‘ri qo‘llay olishi, muammolarni birgalikda xal etilishida mutaxassislaring o’rni va roli kattadir. [1]

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning ota-onalariga korreksiya ishlarini erta boshlashning ahamiyatini tushuntirish zarur. Erta korreksiyasiz kar va zaif eshituvchi bolalar ikki-uch yoshgacha gapirmay qolishini ta’kidlash joiz.

Ularning umumiy rivojlanishi ham atrofdagilar bilan muloqotning yo‘qligi, atrof olamdagi tovushlarni idrok etish imkoni buzilishi sababli oqsashini tushuntirish kerak. Ota-onalarni go‘daklik va ilk bolalik yoshidagi umumiy va nutqiy rivojlanish qonuniyatlari bilan tanishtirish, eshitadigan ham eshitmaydigan bolaning rivojlanishi uchun hayotining birinchi - ikkinchi yili katta ahamiyat kasb etishini, zero bu davrda predmetlar olamini bilishni, nutkni tushunishni, uning ritmik-intonatsilon va tovush tomonining shakllanishini rag‘batlaydigan mulokotning muhim shakllari tiklanishini tushuntirish lozim. Bu komponentlarning shakllanishi uch yoshdan keyin juda qiyin va uzoq muddatlarda kechishini uqtirish lozim bo‘ladi. [1].

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolaning ilk yoshdagi rivojlanishining asosiy sharti eshitishni protezlash sanaladi. Ota-onalarga to‘g‘ri tanlangan eshitish apparatlarining afzalliklarini tushuntirish zarur: atrof olamdagi tovushlarni idrok etish imkoniyati predmet va hodisalarning xossalarini bilish; bola xulqini boshqarish uchun juda zarur. Erta protezlash nutqni ko‘rib-eshitib idrok qilishning rivojlanishi uchun (buning samaradorligi ko‘rib idrok etishga qaraganda ancha yuqori); eshitish idroki, o‘z nutqini nazorat kilish uchun alohida ahamiyatga ega.

Bola bilan oilada nutqiy muloqotning zarurati alohida uqtiriladi. Rivojlanishning ilk bosqichlarida, ya’ni go‘daklik va ilk bolalik davridagi muloqot bolaning rivojlanishida hal qiluvchi omil sanaladi. Eshitadigan ota-onalarga eshitmaydigan bola bilan muloqot qilish oson emas. Shu sababli ota-onalarga normal, emotsional tabiiy imo-ishoralar bilan to‘ldirilgan nutqdan foydalanishning ahamiyatini tushuntirish lozim. Nutq bolani parvarishlash bilan bog‘liq barcha vaziyatlarda: ovqatlantirish, cho‘miltirishda hamroh bo‘ladi. Katta odam zarur predmetlar va bajarilayotgan harakatlarni ataydi. Nutq ko‘p so‘zli bo‘lmasligi: bir xil vaziyatlarda aynan bir xil iboralardan foydalanish kerak, shunda bola ularni tushunishga tezroq o‘rganadi.

Bolaning amalda butun faoliyati kattalar tomonidan tashkil etilishi va bolaga

pedagogik ta’sir bilan bog‘liqligiga qaramay, bolalar bilan muntazam mashg‘ulotlar o‘tkazish kerak, ularning mazmuni umumiy rivojlantirish ishi, nutqni, eshitish idrokini rivojlantirishga oid maxsus o‘yin va mashqlardan iborat bo‘ladi. Mashg‘ulotlar davomiyligi va mikdori bolaning yoshi, psixofiziologik holatiga bog‘liq. Mashg‘ulotlar kun davomida bir necha marta o‘tkaziladi. Mutaxassislar bir yoshgacha bo‘lgan bolalar bilan bir kunda uchta 3-5 daqiqalik; ikki yoshgacha bolalar bilan ikki-uchta 10 daqiqalik; ikki yoshdan besh yoshgacha bolalar bilan 15-20 daqiqalik mashg‘ulot o‘tkazishni tavsiya qiladi. Mashg‘ulotlar, odatda, kungning birinchi yarmida va kunduzgi uyqudan keyin o‘tkaziladi. Turli yo‘nalishdagi mashg‘ulotlar o‘zaro almashtirib boriladi. Mashg‘ulot o‘tkazish joylarini: gilamda, o‘yin burchagida, stol atrofida aniqlash kerak. Mashg‘ulotlarga tayyorgarlik: har bir mashg‘ulot maqsadini o‘ylab olish, uning rejasini ishlash, turli xil didaktik materialni tanlash katta ahamiyatga ega. Ota-onalarga eshitmaydigan bola bilan oilada mashg‘ulotlar o‘tkazish yuzasidan batafsil maslahatni, odatda ota-onalarga pedagogik yordam ko‘rsatadigan surdopedagog berishi lozim.

Maktabgacha yosh davri – inson hayotida muhim, aytish mumkinki, hal qiluvchi palla. Bu davrda asosiy odatlar, ko‘nikmalar shakllanadi, xarakter belgilanadi, ya’ni butun keyingi hayot asoslari quriladi, barpo etiladigan har qanday imorat uchun poydevor nima ekanini juda yaxshi bilamiz. [5].

Bolalar bog‘chasida surdopedagog va tarbiyachilar uni shu yoshdagi eshitadigan bolani o‘rgatishgan hamma narsaga: rasm solish, yopishtirish, qurish, sanash va raqs tushishga o‘rgatishadi. Hamma bolalar kabi uni ham mehnatshga, ozodalikka, muloyimlikka o‘rgatishadi. Bunda *meniki-bizniki, mumkin-mumkin emas, rost-yolg‘on* kabi ko‘plab hayotiy muhim, ilk yoshda shakllantiriladigan va bevosita tarbiya natijasi sanalmish tushuncha va ko‘nikmalar shakllantirila boshlaydi. Bu mashqlar muloqot jarayonida, katta odam bola bilan turli tovush va tovush birikmalaridan foydalanib, ularni gimnastika elementlari bilan birga

qo‘llab "gaplashganida" amalga oshiriladi. Shu sababli o‘yin va maishiy harakatlar paytida katta yoshli odam predmet, hodisa, o‘yinchoq, harakatlar nomini ataydi, bolalar ularni uddalagani darajada ularning nomini taqlidan aytishga (atashga) undaydi.

Kar bolaning ota-onalari bolani maxsus maktabgacha ta’lim tashkilotlariga tayyorlash uchun ta’lim-tarbiyaga oid elementar bilimlarni egallashi zarur. Ta’limni kechiktirib bo‘lmaydi. Chunki bu davr ichida eshitadigan bola eshitib va eslab qolgan har bir so‘z bilan kar bola hamda eshitadigan bola o‘rtasidagi farq ortib boraveradi.

Bola bog‘chaga kelgan vaqtda unga ko‘rsatiladigan yordam xarakteri o‘zgaradi. Biroq ota-onaning ishtiroki ahamiyati ortib boradi.

Bolalar bog‘chasida ta’lim olayotgan bolaga qushimcha yordam ko‘rsatilganida uning ta’limdagi natijalari shubhasiz ortadi,. Tabiiyki, ota yoki ona o‘zini shu faoliyatga bag‘ishlashga tayyor, bu bola uchun foydali, biroq aslo shart emas. Odatiy sharoitlarda o‘z ishi, oilasi bilan mashg‘ul ota va onalarga kar bolaning ta’lim va tarbiyasini o‘z zimmasiga olish, ayniqsa boshlang‘ich davrda (bola o‘qishni va asosiy tovushlarni o‘zlashtirganiga qadar) juda qiyin. Bola ta’limi va tarbiyasiga to‘g‘ri yondashish uchun mutaxassislar tavsiyalari asosini tashkil qiladigan tarbiya tamoyillarini bilib olish kerak. Ularni o‘zlashtirgach, bolaning individual xususiyatlari va yashash sharoitlariga mos tarzda ongli ravishda shu tavsiyalarga amal qilish mumkin bo‘ladi.

Ota-onalar kar bolalarning maktabgacha tarbiyasidagi uchta muhim dastlabki qoidani bilishlari kerak.

Birinchisi. Sog‘lom kar bolaning aqliy rivojlanish imkoniyatlari eshitadigan bolanikidan kam emas. Yuqori darajada talabchanlik va malakali ta’lim bilan uyg‘unlashgan muhabbat - shu imkoniyatlarni realizatsiyalash imkonini beradigan shart-sharoit shundan iborat. Muvaffaqiyatga ishonish, shu ishonchni bolada tarbiyalay olish – kar bolani baxtli qilish va o‘z nuqsonini his qilmaslik, hech

bo‘lmaganda undan aziyat chekmaslikka yordam berishning muhim omili.

Ikkinchisi. Tarbiyaning umumiy masalalari, uning hissiyoti, xulqini tarbiyalash maxsus tarbiyaga qaraganda ikkinchi darajali emas, balki maxsus tarbiyaning asosini tashkil qiladi. zero farzand, avvalo farzand, keyin esa kar. Buni unutmaslik lozim, uning ma’naviy qiyofasi, uning shaxsini tarbiyalash – maxsus o‘qitishning har bir vaziyatini belgilaydigan asosiy jihat shu. Bunda kar bola xulqini tarbiyalashga uning eshitadigan tengdoshining xulqini tarbiyalashga kabi yondashish zarur.

Uchinchisi. Bolani soqovlikdan asrab qolish, atrofdagilar bilan muloqotga o‘rgatish uchun barcha vositalardan foydalanish kerak. Kar bolani o‘qitishning (ota-onalar uchun) tobora samarali va qulay vositalardan biri daktil (barmoqlar) nutqi sanaladi. kichik yoshdagi kar bolalarni o‘qitishda undan keng foydalaniladi.

Daktil nutq – og‘zaki nutqning bir ko‘rinishi. Undan foydalanish – so‘zlarning ma’nosini tushunish, tilning grammatik qurilishini egallash demak. Bu nutqni ham og‘zaki ham yozma shaklda egallashga ko‘maklashadi. [4].

Kar bolalarni tarbiyalayotgan ota-onalar va boshqa kishilar uni bola bilan muloqotda to‘g‘ri qo‘llash uchungina emas, balki fikrlari, aniqrog‘i, bilib-bilmay chiqaradigan hukmlari bolaning to‘la qonli tarbiyasiga xalal beradigan kishilarga uning ahamiyatini tushuntirib berish uchun ham daktil nutqning ahamiyatini tushunib yetishlari kerak. Daktil nutq nima? Mutaxassislar daktil nutqni savodi chiqmagan kar bolalarda og‘zaki nutq o‘rniga mimika nutqining intensiv rivojlanishining oldini olish uchun keng qo‘llashni tavsiya qilishadi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

Андреева. Л.В. Сурдопедагогика Масква Академия 2005

Головчиц. Л.А. Дошкольная сурдопедагогика Владос 2015

3.Корсунская .Б.Д. Развитие речи глухих дошкольников –М.: 2000.

4.Корсунская .Б.Д. Читаю сам книга для чтения глухих дошкольников.-М.1999

5. Рау. Ф.А. Устная речь глухих. М., 2000 г.